

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14031089>

**Rahmatova Madina Shahobiddinovna**

*Farg'ona davlat universiteti  
filologiya fakulteti, o'zbek tili yo'naliши  
2-bosqich 23.85-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lism sifatini yaxshilash uchun taklif va mulohazalar, ta'lism tizimidagi ba'zi muammolar va ular, uchun yechimlarga to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lism, maktab, bilim, oliy ta'lism, ta'lism tizimi, o'quvchi, talaba.*

"Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni bilim, ta'lism va tarbiya bo'ladi"<sup>76</sup> deya ta'kidlagan muhtaram prezidentimiz. Har bir mamlakat o'z ta'limi bilan yuksaladi. Inson yaxshi ta'lism-tarbiyaga ega bo'lar ekan, o'z yurtini, oilasini, kelajagini o'ylab ish tutadi. Yurtni yuqori marralarga erishishiga sababchi bo'ladigan ham ta'lism hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishibdiki, yoshlarning ta'lism olishi asosiy mavzu bo'lib kelmoqda. "Biz bugun o'tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlari, farzandlarimiz to'g'risida o'ylashimiz, ularning ma'naviy kamoloti va jismoniy sog'ligi, millatning sog'ligi to'g'risida qayg'urishimiz kerak", - deydi Islom Karimov.<sup>77</sup>

Bugungi kunda, ta'lism sohasi katta e'tibor ostida. Masalan, maktab o'quvchilar uchun Temurbeklar maktabi, Prezident maktablari ochildi va bu yerda o'quvchilar yaxshi bilim olishmoqda. Oliy ta'limda ayol-qizlarning ta'lism olishi uchun ularga alohida kvotalar ajratilmoqda. O'quvchilar ma'lum fanlardan milliy sertifikatdan yetarli ballarni to'plagan holda muddatidan avval talaba bo'lish ballarini qo'lga kiritishmoqda. Magistratura bosqichi uchun ayol-qizlarga kontrakt summasi davlat tomonidan qoplab berilmoqda. Ammo, hozirda ko'pchilikning fikrichga, O'zbekiston ta'limi mukammal darajada yaxshi emas. Masalan, ba'zi maktablarda ta'limdan ko'ra davomat masalasi avvalgi o'rnlarda turadi. Bunga aslida sabab nima? Agar, shunday maktablardagi o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqlishi yaxshi bo'lsa, davomat masalasi o'z-o'zidan hal bo'ladi. Ya'ni, afsuski, jamiyatda shunday insonlar borki, bolalarni, yoshlarni ta'limga bo'lgan qiziqlishini so'ndirishmoqda. Masalan, bunga ko'pchilik guvoh bo'lgani aniq, ba'zi insonlar farzandiga "O'qib olim bo'larmiding?" degfan gaplarni aytishmoqda. Va shu narsa aniqki, ko'pchilik o'quvchilar shunday gaplar ta'siriga tushib qolmoqda va ta'limdan qiziqlishlari ancha pasaymoqda. Avval ta'lism olmagan ota-onalar borki, farzandlari ta'lism olishidan ko'ra maishiy ishlarni, ko'proq mablag' topishni ustun ko'rishadi. Vaholangki, aynan shu ko'p mablag'ga ega

<sup>76</sup> <https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi>

<sup>77</sup> Islom Karimov. Bunyodkorlik yo'lidan. Asarlar. 4-jild, Toshkent,"O'zbakiston", 1996-y, 181-bet.

bo'lish, maishiy muammolarning yechimi bilimga ega bo'lish bilan yechiladi. Bunday muammolarni bartaraf qilish uchun esa davlat bir qancha harakatlarni amalga oshirishni boshlagan. Ya'ni, maishiy ishlarni, mablag' ko'paytirishni ustun ko'rvuqchi insonlarga ta'lim, bilim bilan barchasiga erishish mumkinligini ko'rsatib bermoqda.

Ko'pchilikda shunday fikr mavjud: "O'zbekiston ta'lifi, hayoti qoniqtirmayapti, chet elga chiqishim kerak". Afsuski, bu gaplarni aytayotgan insonlarning ba'zilari yaxshi bilimga ega insonlar hisoblanadi. Agar, shunday bilimli insonlar O'zbekistonni rivojlantirishni o'ylab, chet elda erishmoqchi bo'lgan narsasini, orzu qilgan hayot tarzini shu yerda yaratishga harakat qilsa, O'zbekiston ham o'sha orzulardagi mamlakatga aylanadi.

Ba'zi universitetlarda kutubxonadan foydalanish muammolari uchrab turadi. Masalan, har bir oliy ta'lif muassasasida kutubxona mavjud, ammo u yerdagi kitoblar, darslik va qo'llanmalar yetarlicha emas. Lekin, shunday darslik va qo'llanmalar borki, ularning kitoblar mavjud emas, ularni faqat elektron shaklda topish mumkin. Buning uchun, mening fikrimcha, har bir oliy ta'lif muassasasining kutubxonalarini kengaytirgan holda, kompyuter va boshqa shu kabi boshqa yangi texnologiyalar bilan ta'minlash zarur.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, O'zbekiston rivojlanayotgan davlatlar qatorida rivojlanmoqda. Yurtimiz rivojlanish barobarida barcha sohalar, shu jumladan, ta'lif tizimiga ham katta e'tibor qaratmoqda. Yurtimiz ta'lif tizimining rivojlanishi uchun nafaqat yurt, balki, biz talaba va o'quvchilar ham yaxshi o'qib oz hissamizni qo'shishimiz lozim.